

O‘ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Xamidjonov Shermurod Xomidjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchisi

shermurod.khamidjonov@gmail.com

Annotatsiya:Maqolada mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va erkinlashtirishda tashqi savdoni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va bunday faoliyatni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalariga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar tahlil etilgan. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmining samaradorligi ko‘p jihatdan xalqaro savdoning moliyaviy ta‘minoti bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda xalqaro savdo aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning globallasuvi va jahon iqtisodiyoti tizimiga chuqur integratsiyalashuvini amalga oshirishga qaratilgandir.

Kalit so‘zlar:Iqtisodiyot, integratsiya, moliya, jahon, ittifoq, o‘shish, tovar, strategiya, eksport, import.

Annotation:The article analyzes a wide range of measures aimed at the development and liberalization of the foreign economic activity of our country, aimed at the development of foreign trade, production of export-oriented and import-substituting products, and financial support of such activities. The effectiveness of the organization of foreign economic relations and the mechanism of their management is largely related to the financing of international trade. Measures to develop international trade relations in our country are aimed at the implementation of globalization of the national economy and deep integration into the world economy system.

Key words:Economy, integration, finance, world, union, growth, commodity, strategy, export, import.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki, tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqarorligi oshishida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarini rivojlantirish, eng avvalo eksport salohiyatini oshirish hozirgi kunning muhim masalaridan biridir. Shu bilan birga O‘zbekiston ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotining ayni pallasida eksport hajmi va salohiyatini oshirish bir necha sababga ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- birinchidan, eksportni rivojlantirish ichki bozordagi chegaralangan imkoniyatlardan tashqari taklif bozori hajmini tashqi omillar evaziga kengaytirish imkonini beradi. Bu esa milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi.

Mazkur omilning dolzarbligini shu bilan izohlash mumkinki, bir tarafdin, mustaqillikka erishgunga qadar mamlakatdagi deyarli barcha korxonalar nafaqat O‘zbekiston, balki boshqa respublikalar ehtiyojini ham qondirishga qaratilgan holda tuzilgan bo‘lsa, boshqa tarafdin, mustaqillik yillarida tashkil etilgan ko‘pgina korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati ham (asosan to‘qimachilik, avtomobil, kimyo sanoati va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida) ichki talabnigina emas, balki tashqi dunyo ehtiyojini ham qondirishga yo‘naltirilgan. Biroq ayni paytda mazkur korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanilmayapti va ularning bir qator mahsulotlari ichki bozor hajmining chegaralanganligi va ushbu sohada mavjud muammolar tufayli eksportning ham chegaralanganligi uchun o‘z raqobatbardoshligini yo‘qotmoqda. Demak, mazkur korxonalarda mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va shu asnoda raqobatbardoshlikka erishish ko‘p jihatdan kelajakda bu mahsulotlar eksporti ko‘lamini oshirish bilan bog‘liqdir. Ayni paytda yana bir omilni hisobga olish kerakki, hozirgi davrda iqtisodiyotning deyarli ko‘pgina tarmoqlarida raqobatbardoshlikka erishish faqatgina ommaviy ishlab chiqarish (ko‘lam ta‘siri) evaziga bo‘lishi

mumkin. Bu esa nafaqat ichki, balki tashqi bozor talabi ham avvaldan hisobga olingan tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish kerakligini nazarda tutadi.

- ikkinchidan, eksport faoliyati davrida milliy ishlab chiqaruvchilar tashqi bozorda chet ellik ishlab chiqaruvchilar tomonidan jiddiy raqobatga duch keladilar. Bu holat ularni doimo ishlab chiqarishni zamon talablarga mos tarzda joriy etish, yangi texnologiyadan foydalanish, mahsulot assortimentini yangilab turish va uning tannarxini pasaytirishga undaydi. Demak, uzoq muddatli davrda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishning muhim sharti sifatida milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan siyosatni aytish mumkin.

- uchinchidan, yildan yilga O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan chet el sarmoyalari ko'lami ortmoqda. Bu, o'z navbatida, kelajakda sarmoya siyosati bilan bog'liq bo'lgan sarmoyaviy mahsulotlar importi (bunga ma'naviy va moddiy eskirish natijasida texnika va texnologiyani yangilash, ishlab chiqarishni kengaytirish kabi amallarni misol qilish mumkin), chet el sarmoyasi kiritilgan korxonalar foydasini repatriatsiya qilish, foiz va dividendlarni to'lash, tashqi qarzni uzish va hok. kabi xarajatlarning oshishiga sabab bo'ladi. Mazkur chiqimlarni qoplashning asosiy manbai eksport tushumi bo'lganligi sababli to'lov balansi va makroiqtisodiy barqarorlikning kelajakdagi holati ko'p jihatdan mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga bog'liq bo'ladi.

- to'rtinchidan, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish hamda jami eksport va ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar salmog'ini oshirish iqtisodiyotni texnologik jihatdan modernizatsiya qilish masalasiga borib taqaladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun sarmoyaviy mahsulotlar importi hajmini sezilarli darajada oshirish kerak. Bunday mahsulotlar importi xarajatlarini qoplashning asosiy manbai esa eksport bo'lganligi uchun mazkur masalaning echimi ham eksportni rivojlantirish, uni jadallashtirishga bog'liq.

- beshinchidan, jahon tajribasiga ko'ra, eksportni rag'batlantirish siyosati import o'rnini bosish siyosatiga nisbatan anchayin samaraliroq. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va aholi real daromadlarini sezilarli darajada oshirishga faqatgina import o'rnini bosish siyosatidan voz kechib, eksportni rag'batlantirish siyosatiga urg'u bergandagina erishish mumkin.

Shu bilan birgalikda, Respublikamizda 2024 yilda olib boriladigan tashqi iqtisodiy siyosat respublika eksport salohiyatini yanada oshirishga, mahalliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga, eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishga hamda mamlakatda iste'mol narxlarini past darajada ushlab turishga qaratiladi.

O'zbekiston respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishining huquqiy asoslari sifatida, O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunlari va boshqa moliya tizimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari xizmat qiladi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonuniga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- Tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta bilan tartibga solish;
- soliq bilan tartibga solish;
- tarif va notarif tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;

- Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;

- o'z xossa hamda xususiyatlariga ko'ra yalpi qirg'in qurolini (yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharlovchi qurol) hamda uni etkazib berish vositalarini (raketalar vayalpi qirg'inqurolini etkazib berishga qodir boshqatexnika vositalarini), boshqa turdagi qurol-yarog' hamda harbiy texnikani yaratishda muhim hissa qo'shishi mumkin bo'lgan, eksport nazorati obyektlari ro'yxatlarida ko'rsatilgan tovarlar, asbob-uskunalar, ilmiy-texnika axboroti, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan eksport nazoratini o'rnatish;

- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya,

ekologiya standartlari va talablarini belgilash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari uchun preferentsiya va imtiyozlar berish.

O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan tovarlar eksporti, importini taqiqlash hamda cheklash belgilanishi mumkin va ular quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash;

- fuqarolar hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini hamda atrof muhitni muhofaza qilish;

- ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioya etish;

- O'zbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash;

- madaniy boyliklarni, noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga bo'lgan mulk huquqlarini boshqaga o'tkazishdan himoya qilish;

- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini saqlab turish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish;

- tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish;

- O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish.

Tovarlarning ayrim turlarini eksport va import qilish faqat ularni olib kirish yoki olib chiqish uchun tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olinganidan keyin amalga oshiriladi. Tovarlarning ayrim turlarining eksporti va importini amalga oshirish uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar tomonidan beriladi.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirishda tashqi iqtisodiy omillardan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish.

2. Xorijiy sarmoyadorni qiziqtiruvchi sohalar, obyektlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlar majmuini shakllantirish, biznes rejalar va ularni iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalariga chet el kapitalini jalb qilish.

3. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

4. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari bilan samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalariga yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni etkazib beruvchilari bo'lishlari zarur.

5. Chet el investorlari uchun qulay investitsion muhitni yaratib berish va ular uchun kafolatli qonunchilik tizimini takomillashtirish;

6. Ekspertga ishlaydigan kichik va o'rta korxonalarni ko'paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish va h.k.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tashqi savdo operatsiyalarini rivojlanishi va ularni moliyalashtirish bilan bog'liq quyidagi muammolar uchraydi.

1. Hozirgi paytda respublikamizda mahsulot eksportini oshirishni ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ulushini oshirish hisobidan uning tarkibini sifat jihatidan o'zgartirish vazifasi qo'yilmoqda. Biroq, eksport

hajmining umumiy o'sishiga qaramay, xomashyo eksporti barqaror ravishda yuqori bo'lib qolavermoqda. Mavjud statistika ma'lumotlari xomashyo eksporti va noxomashyo eksportini bir-biridan aniq farqlashni amalga oshirishga imkon bermaydi. Shu sababli O'zbekistonning asosiy xomashyo eksport tovarlari - paxta tolasi, energetika vositalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallargina alohida guruhga ajratildi.

Shu sababli mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishining asosiy sharti samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hisoblanadi, bu esa davlatdan iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, investitsion jarayonlarni faollashtirish, soliqqa tortish darajasi va kredit qiymatini pasaytirish, narx shakllanishidagi nuqsonlarni bartaraf etish, valyuta va fond bozorlarida (bu O'zbekistonda deyarli rivojlanmagan) operatsiyalar daromadlilikini pasaytirish va boshqa bir qator muammolarni hal etishga yo'naltirilgan keng miqyosli chora-tadbirlar amalga oshirishni talab qiladi. Shunday qilib, tashqi savdo siyosati makroiqtisodiy siyosatning davomchisi va bir paytning o'zida uni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lishi ko'zda tutilgan.

2. Bugungi kunda tashqi savdo bilan shug'ullanayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldida turgan eng dolzarb muammo - bu import qiluvchilarni valyutaga bo'lgan talabini qondirish muammosi hisoblanadi.

Import bilan shug'ullanuvchi korxonalarining import bo'yicha xorijiy valyutani sotib olish jarayonini «Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom» tartibga soladi¹.

Ushbu tartibga ko'ra, xorijiy valyutani xarid qilish va sotish buyurtmanomalari bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar vakolatli banklar ekspertlari tomonidan uch ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi. Taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bergan holatlarda ekspert guruhi a'zolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlaydigan shakl bo'yicha vakolatli bankning ekspertlar xulosasi tayyorlanadi. Shuningdek, vakolatli bank ekspert guruhining ijobiy qarori qabul qilingandan so'ng keyingi kundan kechikmay xorijiy valyuta xarid qilish uchun valyuta birjasiga buyurtmanoma beriladi.

¹ Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qaroriga 2-ilova. «Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom».

Ammo, valyuta birjasida berilgan buyurtmanomalarining bajarilish muddatlari aniq belgilanmaganligi sababli, import qiluvchilarning buyurtnomalarining bajarilishi kechikishi mumkin. Bu esa, import shartnomasining o'z muddatida bajarilmasligiga olib keladi.

Fikrimizcha, ushbu holatni vujudga kelish sababi - bu, xorijiy valyuta resurslarining tanqisligi hisoblandi.


3. Eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va to'siqlarning mavjudligi. Tijorat banklari mijozlarining asosiy qismi eksport va import bilan shug'ullanuvchi korxonalar ekan, ularning eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishdagi muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport-import bitimlarini amalga oshirish mexanizmi faol ishlashi uchun to'siq bo'layotgan asosiy muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etishda quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi:

- xususiy biznes sub'ektlari uchun eksport-import jarayonini soddalashtirish, ya'ni, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda hisob-kitoblarni yanada erkinlashtirish; shuningdek, eksport va import shartnomalari shartlari to'liq bajarilganda, ushbu shartnomalarni tijorat banklari va bojxona organlaridan avtomatik tarzda hisobdan chiqarishni yo'lga qo'yish lozim.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan valyuta siyosati va mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora- tadbirlarning amalga oshirilishi tashqi savdo balansining ijobiy bo'lishini ta'minlab kelmoqda.

Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, bunday tovarlar bozorlariga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Tashqi savdo aylanmasining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish yo'nalishlari²

Jahon bozorlarida korxonalarimiz mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

² Izlanishlar natijasida tadqiqotchi tomonidan shakllantirildi.

- eksport qiluvchi korxonalariga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;

- ularni tashqi bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish;

- transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish;

- yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va h.k.

Xulosa qilib aytish mumkinki, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi. Mamlakatimiz hukumati tomonidan tashqi savdo siyosatining oqilona tarzda yuritilayotganligi tashqi iqtisodiy aloqalarning jadal sur'atlarda rivojlanishini ta'minlamoqda. Ushbu barqaror rivojlanish sur'atlarini ta'minlash mamlakatimizning xalqaro moliya tizimida munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabrdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5587-sonli Farmoni. // Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 dekabrdagi "Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab- quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3351-sonli Qarori. // Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

3. Voxidova M.X. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi muammolari va istiqbollari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018 yil.

4. Mamadjanova T. O'zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018 yil.

5. <http://www.stat.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti).

7. <http://www.lex.uz> - (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

9. <http://www.mf.uz> - (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti).

10. <http://www.unctad.org> - (United nations conference on trade and development).

11. <https://www.sciencedirect.com> - (Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi).

12. <https://www.scopus.com> - (Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi).